

IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO‘YICHA JORIY MEXANIZMLARNING TAHLILI

Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning amaldagi mexanizmlari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatda xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qonunchilikni takomillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish yo‘nalishida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot davomida investitsiya muhitiga ijobiy va salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlanib, mavjud mexanizmlarning samaradorligi baholandi. Shuningdek, xorijiy investorlarning O‘zbekiston bozoriga kirishi, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, yuzaga kelayotgan byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqildi. Ish yakunida investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, iqtisodiy islohotlar, sarmoyadorlar, huquqiy kafolatlar, sarmoyaviy jozibadorlik, mexanizm, islohotlar samaradorligi.

Abstract

The article analyzes the existing mechanisms for attracting foreign investments into Uzbekistan’s economy. In recent years, a number of reforms have been implemented in the country to create favorable conditions for foreign investors, improve legislation, simplify the taxation system, and develop free economic zones. The study identifies positive and negative factors affecting the investment climate and evaluates the effectiveness of current mechanisms. It also examines the entry of foreign investors into the Uzbek market, the opportunities provided to them, the bureaucratic obstacles encountered, and ways to overcome them. In conclusion, proposals and recommendations for improving investment policy were developed.

Keywords: foreign investment, investment climate, economic reforms, investors, legal guarantees, investment attractiveness, mechanism, reform effectiveness.

Аннотация

В статье анализируются действующие механизмы привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. В последние годы в стране реализован ряд реформ, направленных на создание благоприятных условий для иностранных инвесторов, совершенствование законодательства, упрощение налоговой системы и развитие свободных экономических зон. В ходе исследования выявлены положительные и отрицательные факторы, влияющие на инвестиционный климат, а также оценена эффективность существующих механизмов. Кроме того, рассмотрены вопросы входа иностранных инвесторов на рынок Узбекистана, предоставляемые им возможности, бюрократические барьеры и пути их устранения. В заключение разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию инвестиционной политики.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, инвестиционный климат, экономические реформы, инвесторы, правовые гарантии, инвестиционная привлекательность, механизм, эффективность реформ.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida iqtisodiy o‘shni ta’minlash va raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirishda xorijiy investitsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy sarmoya nafaqat moliyaviy resurslarning oqimini ta’minlaydi, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi hamda xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini ham olib kiradi. Shu bois, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida O‘zbekiston ham iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha izchil siyosat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston hukumati tomonidan yaratilayotgan huquqiy va institutsional mexanizmlar xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Jumladan, erkin iqtisodiy zonalar, soliq va bojxona imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar hamda soddalashtirilgan ruxsat berish tartibotlari bunga misoldir. Ushbu ilmiy ishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha amalda qo‘llanilayotgan asosiy mexanizmlar, ularning samaradorligi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari chuqur tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro adabiyotda chet el korxonalarining xulq-atvorini tushuntirish uchun eng ko‘p ishlatiladigan nazariyalardan biri — Dunning tomonidan ilgari surilgan eklektik paradigma, ya’ni OLI (Ownership, Location, Internalization) ramkasidir. Unga ko‘ra, mamlakatning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati uch omilga bog‘liq: investorning o‘ziga xos ustunliklari, host-mamlakatning joylashuv afzalliklari va investitsiyaning ichki tashkil etilishi zarurligi. Ushbu yondashuv hukumatlarga bozor hajmi, infratuzilma va institutsional sifatni yaxshilash orqali joylashuv omillarini kuchaytirishni tavsiya etadi.

Empirik tadqiqotlar xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shga ta’siri hamda texnologik spilloverlar masalasini chuqur o‘rganadi. Borensztein, De Gregorio va Lee tadqiqoti FDI ning texnologiya transferi orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, biroq bu effekt faqatgina host-mamlakat ma’lum darajada inson kapitaliga ega bo‘lganda, ya’ni mehnatning malakasi yetarli bo‘lganda yuz berishini isbotlaydi. Shu sababli, sarmoya jalb qilish bilan birga inson resurslarini rivojlantirish siyosatlari ham muhim ekani ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta ta’kidlanadi.

Xuddi shunday, Aitken va Harrisoning korxonalar darajasidagi tadqiqotlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun spilloverlar aralash natijalar berishini ko‘rsatadi: ba’zi holatlarda xorijiy ishtirokchilarning mavjudligi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, biroq bu ta’sir kichik korxonalarda aniqroq seziladi. Umuman olganda, muomala darajasi, raqobat muhiti va texnologiya tarqalishi mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi. Alfaro va hamkorlari esa FDI ning ijobiy ta’siri mahalliy moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq ekanini, ya’ni moliyaviy kanallar oraliq

rol o'ynab, FDI orqali yuzaga keladigan backward ta'sirlarni kuchaytirishini aniqlaydi. Ushbu natijalar investitsiyalarni jalb qilish siyosati faqat soliq yoki subsidiya choralorigina emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bank xizmatlariga kirish imkoniyatini kengaytirish va raqobatni rivojlantirishni ham o'z ichiga olishi lozimligini anglatadi.

O'zbekistonga oid siyosat va tavsialarni tahlil qiluvchi xalqaro tashkilotlar hisobotlari amaliy yo'nalishni ochib beradi. *World Bank* tomonidan tayyorlangan O'zbekiston bo'yicha tahlillar mamlakat uchun FDI strategiyasini ishlab chiqishda sektoral ustuvorlikni belgilash, regulyator barqarorligini oshirish, investitsion xizmatlarni markazlashgan va shaffof shaklda yo'lga qo'yish, shuningdek infratuzilma loyihalarini xalqaro hamkorlik asosida moliyalashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu tavsiyalar adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy va empirik xulosalarni O'zbekiston kontekstiga moslashtirishda amaliy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlarning umumiy xulosasi shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli FDI jalb qilish mexanizmi bir necha qatlamdan iborat. Ular quyidagilardan tarkib topadi: birinchidan, nazariy jihatdan korporativ ustunliklar va joylashuv omillari (OLI); ikkinchidan, host-mamlakatning inson kapitali hamda moliyaviy bozorlar darajasi orqali amalga oshuvchi o'sish kanallari; uchinchidan, amaliy regulyator va infratuzilma chora-tadbirlari. Shunday ekan, siyosatchilarga tavsiya: investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini yagona "soliq imtiyozlari" paketidan kengroq qilib, ta'lim va malaka oshirishni rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarga erkin kirishni ta'minlash, shaffof litsenziya tartiblarini joriy etish va sektorlar bo'yicha aniq ustuvorliklarni belgilash orqali amalga oshirish lozim.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha mavjud mexanizmlarni aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Jahon banki va UNCTAD hisobotlaridan olingan rasmiy ma'lumotlarga asoslandi. Olingan ma'lumotlar dinamik tahlil, solishtirma ko'rsatkichlar va regressiya usullari yordamida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv va erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyoti va raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalar, ayniqsa xorijiy investitsiyalar muhim strategik manba hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar faqat moliyaviy resurslarni emas, balki ilg'or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribasi va xalqaro standartlarni ham o'zida mujassam etgani sababli, ularning iqtisodiyotga jalb qilinishi mamlakatlar rivoji uchun katta ahamiyatga ega.


Xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy investitsiyalar — infratuzilmalarni modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini texnik va texnologik yangilash, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda xalqaro bozor bilan integratsiyani kuchaytirishning muhim omilidir. Shu nuqtai nazardan, investitsion muhitni yaxshilash, sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va

samarali mexanizmlarni joriy qilish har qanday hukumatning ustuvor vazifasiga aylanadi.

O‘zbekistonda ham keyingi yillarda investitsion siyosat tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda. Davlat tomonidan xorijiy investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, huquqiy kafolatlar, erkin iqtisodiy zonalar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) hamda “yagona darcha” tamoyillari kabi bir qator mexanizmlar joriy etildi. Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb etish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida institutlar isloh qilinmoqda, qabul qilingan huquqiy me‘yorlar xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Ushbu jadvalda investitsiyalarning yillik hajmi va ularning o‘shish sur‘atlari ko‘rsatkichlari orqali investitsion faoliyatning dinamikasi tahlil qilinadi.

2020-yilda investitsiyalar o‘shish sur‘ati 95,6 foiz bo‘lib, salbiy holatni aks ettiradi (o‘shish emas, qisqarish kuzatilgan). 2021–2022-yillarda o‘shish tiklangan, lekin nisbatan past sur‘atda bo‘lgan (100–103 foiz atrofida). 2023-yildan boshlab sezilarli sakrash kuzatilgan — 123,4 foiz va 127,6 foiz, bu esa investitsiyaviy faollikning jadal o‘shishini ko‘rsatadi. Hajm jihatidan investitsiyalar 2020-yildagi 210,2 trln so‘mdan 2024-yilda 493,7 trln so‘mga yetgan — ya‘ni 2,35 baravar oshgan. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda olib borilayotgan investitsion siyosat va islohotlarning amaliy natijalar berayotganidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi dinamikasi, trln so‘m va foizda¹


¹ Muallif ishlanmasi

2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror va tez o‘shish sur‘atini namoyon etdi. Investitsiya o‘shish sur‘atlari 2023–2024-yillarda ayniqsa yuqori bo‘lgan, bu esa iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan infratuzilmaviy loyihalar, sarmoyadorlar uchun yaratilgan imtiyozlar va qulay muhit ushbu ijobiy dinamikani ta‘minlagan muhim omillardir.

Kelgusida bu trendni saqlab qolish uchun investorlar uchun barqaror siyosiy va huquqiy muhitni mustahkamlash, investitsiya tizimini raqamlashtirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy sarmoya bilan bog‘laydigan mexanizmlarni kuchaytirish lozim.

Xorijiy investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg‘or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini olib kiradi. Ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirmoqda. Bu esa xorijiy investorlarni jalb qilishda sezilarli natijalar berayotgani o‘zining ijobiy aksini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi va ulushining o‘shishida ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan mazkur tahlilda so‘nggi besh yil ichida O‘zbekistonga kirib kelgan investitsiyalar hajmi va uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi ko‘rib chiqiladi (2-rasm).



2-rasm. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, mlrd.AQSH dollari, foizda¹

¹ Muallif ishlanmasi

2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi umumiy oshish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. 2020-yilda 1,7 mlrd. AQSH dollari bo‘lgan TTXI 2024-yilda 3,1 mlrd. dollarga yetib, qariyb ikki baravarga oshgan. YaIMga nisbatan ulushi 2020-yildagi 2,9 foizdan 2024-yilda 4,1 foizgacha o‘sd, bu esa iqtisodiyotda xorijiy sarmoyaning ortib borayotgan ahamiyatini bildiradi. 2023-yilda TTXI hajmi biroz pasaygan bo‘lsa-da, keyingi yilda sezilarli darajada tiklandi. Ushbu o‘zgarishlar global va mahalliy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi va ularning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi so‘nggi yillarda ijobiy o‘shish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Bu o‘zgarishlar mamlakatdagi investitsion muhitning yaxshilanganini, sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulayliklarni va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kelajakda ushbu tendensiyani davom ettirish uchun investitsion siyosatni barqaror saqlash, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mahalliy biznesni qo‘llab-quvvatlash choralari muhimdir. Shu yo‘nalishlarda olib borilayotgan ishlar xorijiy investorlarning ishonchini mustahkamlab, iqtisodiyotga yangi sarmoya oqimini ta‘minlashga yordam beradi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim tashqi moliyaviy manba hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning turli tarmoqlarida infratuzilmalarni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport hajmini oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda sarmoyadorlarni jalb etishni kuchaytirish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirib, xorijiy kapital oqimini oshirishga erishmoqda.

Ushbu tahlilda 2022–2024-yillar davomida mamlakatimizga davlatlar kesimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdori o‘rganiladi. Ma‘lumotlar orqali sarmoya kiritishda qaysi davlatlarning yetakchi ekani, investitsiyalar hajmining yillik o‘zgarishi va ularning iqtisodiyotga ko‘rsatgan ta‘siri tahlil qilinadi.

Xitoy va Rossiya mamlakatimizga eng katta miqdorda xorijiy investitsiya hamda kreditlarni yo‘naltirayotgan davlatlar hisoblanadi. Xitoydan kelgan mablag‘ 2024-yilda 10,4 mlrd. dollarni tashkil etib, jami 16,8 mlrd. dollarlik investitsiyalar ichida yetakchilikni mustahkamlaydi. Turkiya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlardan kelayotgan investitsiyalar ham sezilarli o‘shishni ko‘rsatmoqda, bu esa ushbu mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayib borayotganini anglatadi. Yevropa davlatlari, xususan Germaniya, Shveysariya, Niderlandiya va Buyuk Britaniya ham O‘zbekistonga sezilarli darajada sarmoya kiritmoqda. Mintaqaviy davlatlar — Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Afg‘onistonning ham investitsiyalar hajmi o‘smoqda, biroq ularning ulushi boshqa davlatlarga nisbatan kamroqdir. 2023-yilda ayrim davlatlarda investitsiyalar hajmi biroz pasayish yoki sekinlashish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024-yilda qayta o‘shish qayd etilgan. Bu holat investitsion muhitning yaxshilanganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval
2022-2024-yillarda mamlakatimizga davlatlar kesimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirilishi mln.AQSh dollari¹

	Davlatlar nomi	2022-2024	2022	2023	2024
1	Xitoy	16804,6	2051,3	4339,2	10414,1
2	Rossiya	11240,1	2362,2	2957,9	5920,0
3	Shveysariya	819,3	206,5	390,3	222,5
4	Turkiya	4439,9	1139,7	1091,1	2209,1
5	Saudiya Arabiston	3208,6	686,5	1157,0	1365,0
6	BAA	2616,9	160,1	1135,4	1321,3
7	AQSh	2012,2	487,7	914,9	612,6
8	Germaniya	3804,3	865,7	936,2	2002,4
9	Singapur	869,6	164,4	401,1	304,1
10	Niderlandiya	2035,6	142,7	248,8	1644,1
11	Buyuk Britaniya	1369,1	73,3	246,1	1049,7
12	Qozog‘iston	906,8	106,6	281,3	518,9
13	Afg‘oniston	265,1	60,2	87,3	117,5
14	Qirg‘iziston	133,9	11,4	53,8	68,6
15	Tojikiston	215,4	21,4	48,8	145,3

2022–2024-yillar davomida O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi sezilarli darajada oshdi. Xitoy va Rossiya yetakchi investorlardir, biroq Yevropa, Arab mamlakatlari hamda boshqa davlatlarning roli ham ortib bormoqda. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizning global investitsion maydondagi o‘z o‘rnini mustahkamlashini, shuningdek, turli mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirayotganini bildiradi. Kelgusida sarmoyadorlar uchun qulayliklarni oshirish, investitsion shaffoflikni ta‘minlash hamda yangi sohalarga sarmoya jalb qilish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shishini ta‘minlashda muhim omil bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va modernizatsiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mamlakatda xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida amalga oshirilgan huquqiy va institutsional islohotlar samarali natijalar bermoqda. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, soliq va bojxona imtiyozlarining berilishi, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish kabi mexanizmlar investitsiya muhitini yaxshilashga yordam bermoqda.

Investitsiyalarni jalb etish mexanizmini yanada samarali qilish uchun davlat organlari va biznes muassasalari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Xalqaro tajribani inobatga olgan holda, O‘zbekiston investitsion muhitni yanada jozibador qilishi mumkin. Natijada, xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmini takomillashtirish mamlakat

¹ Muallif ishlanmasi

iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va iqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мурашко Н.Н. “Оценки инвестиционной привлекательности регионов Республики Беларусь и возможности ее прогнозирования”. МИДО БНТУ 2016. Стр.116.
2. S-itlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends.// Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9.
3. Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Masliхова Elena A, Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations.// Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12.
4. Dovhan Y. Assessment of the Investment Attractiveness (Survey of Ukraine, Vinnytsia



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**